

# **XOTIN-QIZLAR VA BOLALAR HUQUQLARI, ERKINLIKLARI HAMDA QONUNY MANFAATLARINI ISHONCHLI HIMOYA QILISH TIZIMI YANADA TAKOMILLASHTIRILDI**

Ma'lumki, so'nggi yillarda ayollar va bolalarning turli zo'ravonlik va tahdidlarga uchrangani haqidagi mujdalardan tez-tez voqif bo'lyapmiz. Ayniqsa, jabrlanuvchilar begona shaxslar zug'umidan ko'ra oilaviy zo'ravonlikdan ko'proq aziyat chekmoqda. Bunday ayanchli holatlar esa opa-singillarimiz va bolalar huquqlari himoyasini kuchaytirishni taqozo etdi.

Shu bois 2023 yil 11 aprel kuni O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Mazkur hujjat asosida 11 ta kodeks va qonunga, jumladan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi hamda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga ham o'zgartirishlar kiritilib javobgarlik kuchaytirildi.

Jinoyat kodeksining 115-modda, 118-modda, 119-modda, 121-modda, 128-modda, 1281-modda, 129-moddaning, 130-moddaning uchinchi qismi va 1301-moddalari sanksiyalarida jazo tizimi kuchaytirildi.

Quyidagi mazmundagi 1261-modda bilan to'ldirildi:

«1261-modda. Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik, ya'ni Xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan mulk, ta'lim olish, sog'liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qilish, mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek ushbu shaxslar sog'lig'ining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni qo'rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo'yish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, shuningdek basharti boshqa jinoyat alomatlari mavjud bo'lmasa degan tushuncha kiritilib sanksiyasida jazo axloq tuzatish ishlari jazosidan boshlanib og'ir oqibatlar olib

keladigan holatlarda 12 yilgacha bo'lgan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlash belgilab qo'yildi.

Shuningdek quyidagi mazmundagi 1413-modda bilan to'ldirildi:

«1413-modda. Shaxsning sha'nini va qadr-qimmatini kamsituvchi hamda inson hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni oshkor qilish

Shaxs tanasining va (yoki) jinsiy a'zolarining yalang'och holdagi foto- va (yoki) videotasvirini o'z ichiga olgan axborotni uning roziligisiz tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish yoxud bunday axborotni tarqatish bilan qo'rqitish tushunchasi kiritilib, jazo sanksiya jarima jazosi belgilashdan boshlanib og'ir oqibatlariga olib keladigan holatlarda uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilab qo'yildi.

Shuningdek ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi Kodeksga ham o'zgartirishlar kiritildi:

Ma'muriy kodeksning yangi, ya'ni haq to'lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etish jazo turib kiritildi.

«281-modda. Haq to'lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etish

Haq to'lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etish huquqbuzarni ijtimoiy foydali jamoat ishlarini bajarishga majburiy ravishda jalb etishdan iborat bo'lib, u sudlar tomonidan sakkiz soatdan ikki yuz qirq soatgacha bo'lgan muddatga tayinlanadi. Agar huquqbuzar o'qiyotgan bo'lsa, jamoat ishlari o'qishdan bo'sh vaqtda bajariladi.

Huquqbuzarlar haq to'lanadigan jamoat ishlarini o'tashi mumkin bo'lgan joylar (obyektlar) va haq to'lanadigan jamoat ishlarining turlari mazkur jazoning ijrosini nazorat qiluvchi organlar — ichki ishlar organlarining probatsiya bo'linmalari tomonidan belgilanadi.

Haq to'lanadigan jamoat ishlari nafaqa yoshiga yetgan shaxslarga, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga, homilador ayollarga, uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga, doimiy ishga ega shaxslarga, harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etiladigan shaxslar ish haqining ellik foizi aliment majburiyatlari bo'yicha qarzni to'lashga yo'naltiriladi.

Huquqbuzar jazoni o'tashdan bo'yin tovlagan taqdirda, sud haq to'lanadigan jamoat ishlarining o'talmagan muddatini haq to'lanadigan jamoat ishlarining to'rt soati uchun ma'muriy qamoqning bir kuniga teng jazo bilan yoxud haq to'lanadigan jamoat

ishlarining sakkiz soati uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravariga teng jarima bilan almashtiradi. Bunda ma'muriy qamoqning muddati o'n besh sutkadan, jarimaning miqdori esa bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan oshmasligi kerak.

Quyidagi mazmundagi 41<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirildi:

«41<sup>1</sup>-modda. Shahvoniy shilqimlik qilish

Shahvoniy shilqimlik qilish, ya'ni shaxsga nisbatan uning uchun nomaqbul bo'lgan hamda uning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirleydigan, shaxsning tashqi qiyofasini yoki qaddi-qomatini tavsiflashda, imo-ishora qilishda, teginishda, chaqirishda ifodalangan, shahvoniy xususiyatga ega bo'lgan harakatlarni bir marta qo'pol ravishda yoki bir necha marta sodir etish tushunchasi kiritilib, jarima jazosidan boshlanib og'ir oqibatlarga olib keladigan holatlarda o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoq jazosi belgilab qo'yildi

47<sup>4</sup>-modda birinchi qismining [sanksiyasi](#):

«o'n besh sutka muddatga ma'muriy qamoqqa olishga yoki bir yuz yigirma soatgacha haq to'lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etishga yoxud ushbu Kodeksga muvofiq ma'muriy jazolarning mazkur turlari qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi»;

47<sup>5</sup>-modda birinchi qismining [sanksiyasi](#):

«o'n besh sutka muddatga ma'muriy qamoqqa olishga yoki bir yuz yigirma soatgacha haq to'lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalb etishga yoxud ushbu Kodeksga muvofiq ma'muriy jazolarning mazkur turlari qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'lishi belgilab qo'yildi.

Quyidagi mazmundagi 47<sup>7</sup>-modda bilan:

«47<sup>7</sup>-modda. Ota-onaning o'z voyaga yetmagan bolalariga vasiy yoki homiy tayinlash bo'yicha majburiyatlarini bajarmasligi tushunchasi kiritilib, o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'lishi belgilab qo'yildi.

Shuningdek 59<sup>2</sup>-modda:

«59<sup>2</sup>-modda. Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik tushunchasi kiritilib, jarima jazosidan o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'lishi belgilab qo'yildi.

Surxondaryo viloyati jinoyat ishlari

bo'yicha Oltinsoy tuman sudining

arxivariusi

B.Jumayev